

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR

ЈОСАА

VOLUME I, ISSUE 10

МАДАНИЈАТ ВА САНЉАТ

JOURNAL OF CULTURE AND ART

КУЛТУРА И ИСКУССТВО

DECEMBER

2023



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-10

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-10>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович
Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович
Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич
Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна
Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна
Ботирова Хилола
Турсунбаевна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

ZIYAVUTDINOVA Zulfiya Useinovna*Andijon davlat pedagogika instituti**dotsenti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10350392>

MUSIQA MADANIYATI O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH FAOLIYATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratini shakllantirish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagogga qo'yilgan talablar, o'qitish prinsiplari, darslarni tashkil etish xamda o'quvchilarni qiziqishini oshirish uchun didaktik o'yinlar va dasr uchun ko'rgazmali usul va uslublar yoritilgan. Bugungi kundagi pedagog kadrlarni tarbiyalash, ularning bilimlarini jahon standartlariga moslash xamda ta'lim tarbiya berishda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash kerakligi yoritib berilgan.

Musiqa darsi samaradorligini osirishda pedagogning oldiga qo'yilgan maqsadi va vazifalari xamda o'quvchi bilan munosabatlarni shakllantirish ko'nikma va malakalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, musiqa madaniyati, faoliyat, o'quvchi, dars jarayonlari, kasbiy mahorat, musiqiy ko'nikma, ijodkor. mohir, do'stona munosabat, milliy tarbiya.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА УЧИТЕЛЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены процессы формирования педагогического мастерства учителя музыкальной культуры. Также освещаются требования к педагогу, принципы обучения, организация уроков, а также дидактические игры для повышения интереса учащихся и наглядные приемы и приемы для периода. Освещены вопросы воспитания современных педагогических кадров, приведения их знаний в соответствие с мировыми стандартами и обеспечения образования необходимой информацией. Освещены цели и задачи педагога по повышению эффективности музыкального урока, а также навыки и умения по укреплению взаимоотношений с учеником.

Ключевые слова: педагог, музыкальная культура, деятельность, ученик, процессы урока, профессионализм, музыкальные навыки, творчество. умелое, дружелюбное отношение, национальное обучение.

ACTIVITIES FOR THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS OF A TEACHER OF MUSIC CULTURE

ANNOTATION

This article examines the processes of formation of pedagogical skills of a teacher of musical culture. It also highlights the requirements for a teacher, the principles of teaching, the organization of lessons, as well as didactic games to increase student interest and visual techniques and techniques for the period. The issues of educating modern teaching staff, bringing their knowledge in line with international standards and providing education with the necessary information are highlighted. The goals and objectives of the teacher to improve the effectiveness of the music lesson, as well as skills and abilities to strengthen relationships with the student are highlighted.

Key words: teacher, musical culture, activity, student, lesson processes, professionalism, musical skills, creativity, skillful, friendly attitude, national training.

Bugungi yoshlarga katta e'tibor berilgan, ayniqsa ta'lim sohasida ularga shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan bu yildan boshlab ayol-qizlarni magistraturada ta'lim olishi uchun shartnoma to'lovlari davlat tomonidan to'lab berilmoqda. Shuningdek, yoshlarga oid siyosatida xam yoshlarga e'tibor juda katta e'tibor qaratilgan, chinki yoshlarning fikrlarini xurmat qilish, ularga ko'mak berish muhim masalalrga kiritigan.

Prezidentimiz maktab ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda - amalga oshirilayotgan islohotlar.bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Maxmudho ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir", - degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tdi [3].

Amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog hodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yig'ilishda tanqid qilib o'tildi. Ta'lim tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish va yangilash zarurligi bilim berishda chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.

Yosh avlodni kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning salohiyatiga kasbiy tayyorgarligiga, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash ishiga bog'liq. Har tomonlama kamol topgan, hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni, vijdon, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi tuyg'ularni mujassamlashtirgan faol shaxsni shakllantirishda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta [3].

Dars jarayonida interfaol metodlarni to'g'ri tanlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan omillar bo'yicha Cherkassk instituti professori I.P.Podlasiyning, Kuanta Ru Universiteti (Meksika) olimlari M.Sanches, M.Maribel singari olimlarining taxlillari o'rganilib, tajriba -sinov ishlari tashkil etildi [7].

Pedagogika oliygohida ta'lim olayotgan talabalarning oldida bugun katta majbutiyatlar turibdi, chunki ular zamon bilan barovar yurishlari zarur. Pedagoglik sohasini egallash, aynan Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratini shakllantirish jarayonlari dolzarb muammolardan biridir.

Pedagoglarning pedagogik jarayonlarini shakllantirish va musiqiy ta'lim-tarbiyasi xaqida B.Mustafoyevning (Musiqa pedagogikasi.Toshkent; 2022y,) darsligi [1], R.Qodirovning (Musiqa pedagogikasi, Musiqa nashruoti 2018y) monografiyasi [5], J.Yuldashev, D.Muratovning (Musiqa o'qitish metodikasi. Buxoro 2021y) [4] o'quv qo'llanmasida musiqa pedagoglari o'z kasbini egallashi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Ta'lim modeli, o'rganilayotgan fan va mavzu yo'nalishi, g'oyasi ko'lami xamda obyektiv, sub'yektiv sabablar va boshqa jihatlariga ko'ra interfaol metodlarni to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir [7].

Musiqqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratini shakllantirish jarayonlarida to'g'ri ta'lim metodini yaratish va darslar mobaynida qo'llashi muhim omillardandir.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashda xar bir jarayonga e'tibor berish zarur. Bugungi kunda zamonaviy ta'limda o'qituvchi faqatgina kasbiy bilimni egallashi bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalarni, chet-tillarni, fiziologiya, psixologiya va boshqa fanlarni egallashi muhimdir. Yaxshi pedogogni tarbiyalashda intizom xam asosiy o'rinlardandir. Pedagog xar bir darsning tashkiliy tomonlarini tashkil etishda, odob-axloq qoidalariga e'tibor berishi muhimdir, ya'ni darsga kech qolmasligi, kiyinish odobi, nutq madaniyatiga xamda dars jarayonida o'quvchi bilan munosabatlarda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, kasbiy mahorat talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash jarayonida shaklanib boradi. Ya'ni, pedagog zamon bilan birga qadam tashlaydi.

Musiqqa madaniyati darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va tamoyillari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar o'qituvchi hamda o'quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari - dars mazmuni metodlari va darslarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Musiqqa madaniyati darslarining didaktik tamoyillari besh turdan iborat:

1. Musiqqa ta'limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomat tamoyili.
2. Darsda o'quvchilarning onglilik va faolligi tamoyili.
3. Musiqqa madaniyati darslarida ko'rgazmalilik tamoyili.
4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi tamoyili.
5. Musiqqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi tamoyili.

Mazkur tamoyillar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqqa darsining mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Yuqoridagi qayd etilgan umumdidaktik tamoyillar bir- biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqqa darsini Davlat ta'lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlamini hisobga olgan holda uzluksizligini va uzviyligini asos qilib musiqqa faoliyatini izchilligini ta'minlaydi [3].

O'qituvchi musiqiy materialni tanlayotganida qaysi tayyor asarni olish mumkinligini va qaysilarini badihago'ylikka berish kerakligini aniqlashi kerak [2].

Ta'lim berishda yangiliklarga intilib, o'quvchilarni qiziqtiradigan usul va uslublardan, didaktik o'yinlarni imkoniyat qadar kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etishi, slaydlar, rasmlar, xar xil shakldagi ko'rgazmali qurollardan foydalanishi zarur. Ayniqsa o'quvchilarni qiziqtirishda mobil ilovalar xam Musiqqa madaniyati darslarini o'tilishida katta samara beradi. Bo'lajak Musiqqa madaniyati pedagogi xar tomonlama shakllanib borishi muhimdir. Kerak bo'lsa o'z oldiga bir qancha vazifalarni maqsad qilib olishlari muhim masalalalardandir, ular:

1. Darsni tashkil etishda noan'anaviy tarzda salomlashish, ya'ni musiqy yoki she'rlar yordamida (mening ismim Zarina, yoshim o'n birda va hokazo...)
2. O'tilgan mavzuni takrorlashda slayd, yoki musiqqa orqali mavzuni takrorlaydi va o'quvchilarni noan'anaviy tarzda baholaydi. (smaylik yoki ranglar bilan rag'batlantiradi)
3. Dars mobaynida beshta faoliyati turi asosida yangi mavzuni tushuntirib boradi va uning natijasini ko'ra olishi muhim. (qo'shiqni tinglashni o'rgatadi, taxlil qiladi, o'rganadi)
4. Mavzuni o'rgatishda va mustaxkamlashda o'yinlar, interaktiv metodlardan foydalanish.
5. Dars yakunida uyga vazifani imkoniyat qadar sodda, bola tushunadigan holatda berish kerak.

Ushbu vazifalarni bajarishda Musiqqa madaniyati pedagogidan bilimdonlik ko'nikmalari, tinglab kuylay olish va ijrochilik malakalari shakllangan bo'lishi muhimdir. Xar bir faoliyati turini yangicha, o'quvchilarga qiziq bo'lish tizimini ishlab chiqqan holatda darsni shakllantirishi muhimdir. Ya'na shuni ta'kidlab o'tish kerakki, darsning xar bir daqiqasini o'quvchilar bilan do'stona munosabatda o'kazishi zarur. Bu jarayonlar dars o'tish strukturasi xam yangicha yondashgan holatda, tizimli, mohirona olib borilishi pedagogning zamonaviy yondashishga qaratilgan chora-tadbirlaridandir.

Pedagogning kasbiy mahoratini egallashda maktab jamoasi xam muhim o‘rin egallaydi, chunki jamoada xam muhokamalar, tortishuvlar natijasida pedagogic mahorat, kasbga bo‘lgan munosabati shakllanadi, bilmagan ko‘nikma va malakalarni to‘ldirishga imkoniyat bo‘ladi. Xar dars jarayonidan keyin muammoli o‘quvchilar bo‘lsa sinf rahbari orqali o‘quvchining holati, yashash tarsi, ota onasi xaqida ma‘lumot oladi, shundagina qolib ketayotgan o‘quvchilarning ichiga kirib boradi, ularning muammoli vaziyatdan chiqarib birga o‘qishga undaydi. Shu bilan birga o‘quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashib faarzandlarining musiqiy qiziqishlari xaqida aytib, ularni milliy cholg‘ularni (yoki boshqa birorta musiqiy to‘g‘araklarga) o‘rgatish, to‘garaklariga jalb etish muammolarini yechimini topishi pedagogik mahoratlarining sifatlaridandin.

Musiqqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta‘sir etadi. Musiqqa ham fan, ham san‘atdir [8].

Bugungi kunda musiqqa insonning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol tasir ko‘rsatadi. Umumta‘lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o‘quvehilami nafosat olamiga olib kirish va ma‘naviy tarbiya berish. Bunda o‘qituvchi bolalami ma‘lum bir musiqqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, “jonli” qilib ijro etib, o‘quvchilar diqqat-e‘tiborini asargajalb etadi, ularning nutqini ostirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his-tuyg‘ularga ham faol ta‘sir etadi.

Musiqqa darslarining mazmunida faqatgina o‘zlashtirishi emas, balki o‘quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuygularini shakllantirish nazarda tutiladi. O‘qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalami o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Musiqqa tarbiyasida yangi metod va vositalar iziash; hayot va san‘at o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalash. Ushbu maqsadlami amalga oshirishda o‘qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi, o‘z ustida tinmay ishlashi, ya‘ni bilim saviyasini oshirish uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeyiarga borib (o‘quvehilami) ongini oshirish yo‘llarini takomillashib borishi zarur [3].

Shunday qilib, dars mobaynida pedagog o‘quvchi bilan ishlash jarayonida pedagog o‘quvchini rag‘batlantirib turishi, o‘quvchini erkin fikrlashiga imkoniyat yaratishi, ular bilan do‘stona munosabatlarda bo‘lishi zarur. Xar bir o‘quvchiga o‘z diqqat e‘tiborini bera olishi muhimdir, ayniqsa Musiqqa madaniyati o‘qituvchisi dars mobaynidaxar bir savol yoki topshiriqlardan keyin o‘quvchilarni doimo rag‘batlantirish qurollari bo‘lishi zarur, chunki o‘quvchilar o‘qituvchining diqqat e‘tiboriga qarab turadi. Ularning oldida Musiqqa madaniyati o‘qituvchisi emas, balki qandaydir ideal inson turganini sezib turishi muhimdir. Demak, Musiqqa madaniyati pedagogidan darslarga zamonaviy yondashuvi asosida dars samarasi oshadi va Musiqqa madaniyati pedagoglarining mahoratini shakllantiradi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. B.Mustafojevning .Musiqа pedagogikasi.Toshkent; 2022y.
2. D.Soipova “Musiqа o‘qitish metodikasi ” Toshkent; 2009 y.
3. G.Sharipova, Z.Xadjayeva. “Musiqа o‘qitish metodikasi” T.; 2020y.
4. J.Yuldashev, D.Muratovanning .Musiqа o‘qitish metodikasi.Buxoro 2021y.
5. R.Qodirovning . Musiqа pedagogikasi., Musiqа nashruoti 2018y.
6. Xidoyatova D.A Ta’lim-tarbiya olish jarayonini takomillashtirishda interfaol metodlardan foydalanish // Maktab va xayot. – Toshkent, 2012. –№ 4. –Б 41-44. (13.00.00. № 4).
7. Xidoyatova D.A Interfaol ta’lim modeli vositasida ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablar o‘zbek tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni samaradorligini oshirish. 13.00.01-Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta’lim menedjment. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiya avtoreferati.T; 2017y.
8. Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс. Л.: Госуд. муз. изд., 1973г.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-10

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-10

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz